A

Siz nima ish qilasiz?

1. **Akmal va Madinaning suhbatini o‘qing.**

Madina: Salom, Akmal!
Akmal: Salom Madina! Yaxshimisan?
Madina: Rahmat, yaxshiman. Sen-chi?
Akmal: Yaxshiman, rahmat. U kim?
Madina: U mening do‘stim?
Akmal: Uning ismi nima?
Madina: Ismi Sardor.
Akmal: U nima ish qiladi?
Madina: U advokat.



1. U nima ish qiladi?
   Berilgan gaplardan foydalanib, mos joylarga qo‘ying.

1. A: Sening dadang nima ish qiladi?
   B: U shifokor.

2. A: Sen _____?
   B: Men jurnalistman.

3. A:_____?
   B: Ular Sardor va Madina.

4. A: Siz _____?
   B: Men Annaman.
   A: _____?
   B: Men o‘quvchiman.

5. A: Uning _____?
   B: Uning ismi Tolib.
   A: U _____?
   B: U tarjimon.

A. ismi nima?

B. Ular kimlar?

E. nima ish qilasan?

F. nima ish qiladi?


G. Siz nima ish qilasiz?

D. Kimsiz?

2. **Kasblar**.


Rasmlarga qarang va mos kasblarni belgilang.

1. Kotiba
2. Futbolchi
3. Uchuvchi
4. Rassom
5. Shifokor
6. O‘qituvchi
7. Askar
8. Quruvchi









Birlik:
Men kimman?
Sen kimsan?
Siz kimsiz?
U kim?

Ko‘plik:
Biz kimmiz?
Sizlar kimsizlar?
Ular kim/ kimlar?

Kasblarga oid fe’llar

O‘qituvchi	o‘qitadi.
Rassom	chizadi.
Shifokor	davolaydi.
Haydovchi	mashina haydaydi.
Tarjimon	tarjima qiladi

4.Harflarni to‘g‘ri joylashtirib, so‘z hosil qiling.

1. rofoshik –

2. ivchuuch –

3. sakra –

4. ichuvruq –

5. mosars –

5. *Kasblarga mos fe’llarni tanlang.*

1. **Rassom**
2. **O‘qituvchi**
3. **Shifokor**
4. **Tarjimon**
5. **Uchuvchi**

A. Uchmoq/ samalyotni boshqarmoq
B. Tarjima qilmoq
D. Chizmoq
E. o‘qitmoq
F. davolamoq

B

Men rassomman

A. Rasmlarga qarang va ularning ishlarini qandayligini quti ichida berilgan so‘zlardan foydalib yozing .

1 

Men uchuvchiman.
Ishim juda yaxshi.

2 

Men o‘qituvchiman.
_____

3 

Men rassomman.
_____

yaxshi
ajoyib
qiziqarli zo‘r
qulay
qiyin

4 

Men haydovchiman.
_____

5 

Men sotuvchiman.
_____

6 

Men oshpazman.
_____.

B. Yuqoridagi rasmlar tartibiga qarab jadvalni to‘ldiring.


Kasblar	1	2	3	4	5	6
Uchuvchi						
Haydovchi						
Oshpaz						
Rassom						
O‘qituvchi						
Sotuvchi		✓				

1. Uning ichida nima bor ?

A. Tinglang va belgilang.

1. 

- Ruchka
- Rasm
- Daftar
- Telefon
- Qalam
- Kitob

2. 

- Kompyuter
- O‘yinchoq
- Idish
- Shirinlik
- Kiyim
- Ovqat

D

Takrorlash

1. **Yangi so‘zlar**

Otlar		Fe’llar	Sifatlar
Haydovchi	Idish	Qilmoq	Qiziqarli
Shifokor	Kompyuter	Gapirmoq	Zerikarli
Rassom	Tadbirkor	Yozmoq	Kerakli
Uchuvchi	Tikuvchi	Chizmoq	Qulay
O‘qituvchi	Oshpaz	Uchmoq	Ajoyib
Telefon	Tarjimon	Sotmoq	Muhim
Kitob	Sotuvchi	Tarjima qilmoq	Yaxshi
Stol	Askar	O‘qitmoq	Zo‘r
Ruchka	Futbolchi		
Kiyim	Kotiba		

2. O‘zbek tilidagi ifodalar

O‘zbek tilida	**O‘z tilingizda**	**O‘zbek tilida**	**O‘z tilingizda**
Salom		Ular kimlar?	
Yaxshimisan?		O‘quvchilar	
Ahvollaring qanday?		Shifokorlar	
U nima ish qiladi?		U tadbirkor.	
Mening do‘stim.		Men ishimni yaxshi ko‘raman.	
Uning ismi Sardor.		U tarjima qiladi.	
		Mening singlim yaxshi tarjimon.	
		Uning akasi futbolchi	

3. So‘roq olmoshlari. Tarjima qiling.

O‘zbek tilida		**O‘zbek tilida**		**O‘z tilingizda**
Men kimman?	Ular kimlar?	Sen nima ish qilasan?	Bizlar nima ish qilamiz?	
Sen kimsan?	Ana u odam kim?	U nima ish qiladi?	Sizlar nima ish qilasizlar?	
U kim?	Sening do‘stingmi?	Ular nima ish qiladilar?	Ular nima ish qiladilar?	
Bizlar kimmiz?				
Sizlar kimsizlar?				

E

Mashqlar

1. Savollarga javoblarni moslang

1. Uning ismi nima
2. Nima ish qilasiz?
3. Siz kimsiz?
4. Ahvolingiz qanday?
5. Bu yashil qalammi?
6. Stol ustida nimalar bor?
7. U nima ish qiladi?
8. Sumkaning ichida nima bor?
9. Mening kitobim qayerda?
10. Ishingiz qanday?

a. Sumkaning ichida daftar va qalamlar bor.
b. Ishim qiziqarli, lekin qiyin.
c. Stol ustida ovqat va shirinliklar bor.
d. Uning ismi Komil.
e. Raxmat, yaxshiman.
f. Men shifokorman.
g. Sizning kitobingiz javonda.
h. Bu yashil qalam emas. Sariq qalam.
i. Men Abbosman.
j. U rassom.

2. Matnni o‘qing va savollarga javob bering.

Salom! Men Doniyorov Bahodirman. 35 yoshdaman. Men Toshkentda yashayman. Toshkent chiroyli shahar. Mening uyim bor. U katta. Men rassomman.

1. ***U kim?***
2. ***U necha yoshda?***
3. ***U qayerda yashaydi?***
4. ***Uning uyi bormi va qanday?***
5. ***Toshkent qanday shahar?***

3. Rasmga qarang va belgilang.

Buyumlar	Bor	Yo‘q
Chiroq		
Televizor		
Kitoblar		
Gul		
Qahva		
Rasm		

25, chiroyli, Toshkent, gullar, qiziqarli, Malika, yaxshi, katta, qiyin.

5. O‘zingizni tanishtiring.

Salom! Men_____.
Yoshim_____da.
Men _____yashayman.
Mening_____ bor.
Men_____ ____man.
_____ chiroyli va katta shahar.



4. Matnni o‘qing va bo’sh joylarni quti ichidagi so‘zlar bilan to‘ldiring.

Ismim_____. Yoshim_____da. Hozir _____ da yashayman. Men ish boshqaruvchiman. Ishim _____ lekin _____. Uyimda ko‘pgina _____ bor. Toshkentni _____ ko‘raman. Chunki u _____ va _____.